



SHAYBONIYLAR DAVRI TARIXINI O‘RGANISHGA OID MANBALAR VA ILMIY ADABIYOTLAR TAHLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20360027>

Raximova X.R.

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika
universiteti Tarix fakulteti 5-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: professor Z.A. Ilhomov*

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada Shayboniylar davri tarixini o‘rganishga oid yozma manbalar va zamonaviy ilmiy adabiyotlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda XV–XVI asrlarda Movarounnahr va Xuroson hududlarida hukmronlik qilgan Shayboniylar sulolasining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti yoritilgan asosiy manbalar o‘rganiladi. Jumladan, Shayboniynoma, Tarixi Rashidiy, Habib us-siyar kabi asarlarning manbashunoslik ahamiyati tahlil etiladi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy tarixchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ilmiy nuqtayi nazardan baholanadi hamda mavzuni yanada chuqurroq o‘rganish istiqbollari ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Shayboniylar davri, Muhammad Shayboniynon, Movarounnahr, manbashunoslik, tarixiy manbalar, sulola, siyosiy tarix, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, tarixshunoslik, qo‘lyozma asarlar.*

ANALYSIS OF SOURCES AND SCHOLARLY LITERATURE ON THE STUDY OF THE SHAYBANID PERIOD

Rakhimova Kh.R.

*5th-year student, Faculty of History,
Nizami Tashkent State Pedagogical University
Scientific Supervisor: Professor Z.A. Ilhomov*

Annotation: *This scientific article analyzes the primary sources and modern scholarly literature related to the study of the Shaybanid period in the history of Central Asia. The research examines key historical works that describe the political, socio-economic, and cultural life of the Shaybanid state in the 15th–16th centuries. The study focuses on the historiographical significance of major chronicles and evaluates their reliability through comparative source analysis. In addition, the article reviews the contributions of both national and foreign historians to the study of the Shaybanid dynasty. The paper also proposes methodological approaches for further research, including*



critical source analysis and interdisciplinary methods. The findings aim to contribute to a more objective and comprehensive understanding of the Shaybanid period within the broader context of Central Asian history.

Keywords: *Shaybanid period, Muhammad Shaybani Khan, Transoxiana, source studies, historical sources, dynasty, political history, socio-economic processes, historiography, manuscript sources.*

KIRISH

Shayboniylar davri Markaziy Osiyo tarixida muhim o‘rin tutadigan siyosiy va madaniy bosqichlardan biridir. XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Movarounnahr hududida yuz bergan siyosiy o‘zgarishlar natijasida temuriylar hukmronligiga barham berilib, yangi sulola – Shayboniylar hokimiyat tepasiga keldi. Bu jarayon mintaqaning siyosiy tuzilishi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va madaniy taraqqiyotiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, Muhammad Shayboniyxon faoliyati bilan bog‘liq voqealar mintaqa tarixida tub burilish yasadi³⁷.

Shayboniylar davrini o‘rganish nafaqat siyosiy tarixni yoritish, balki o‘sha davrdagi yer egaligi munosabatlari, soliq tizimi, savdo aloqalari, ilm-fan va madaniyat rivojini ham tadqiq etishni talab qiladi. Mazkur davr tarixi ko‘plab yozma manbalarda aks etgan bo‘lib, ular orasida Shayboniynoma, Tarixi Rashidiy kabi asarlar alohida ahamiyatga ega. Ushbu manbalar davr voqealarini yoritishda muhim tarixiy dalillarni beradi, biroq ularni tanqidiy yondashuv asosida tahlil qilish zarur. Bugungi kunda

Shayboniylar davri tarixini xolis va ilmiy asosda o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillarida milliy tarixni qayta ko‘rib chiqish, uni biryozqlama talqinlardan xoli tarzda yoritish zarurati paydo bo‘ldi. Shu bois mazkur mavzu bo‘yicha manbalar va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, mavjud qarashlarni umumlashtirish hamda yangi ilmiy xulosalar chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur maqolaning Shayboniylar davri tarixini o‘rganishga oid manbalar va ilmiy tadqiqotlarni tizimli ravishda tahlil qilish, ularning ilmiy ahamiyatini baholash hamda istiqboldagi tadqiqot yo‘nalishlari haqida s‘uz yuritiladi. Шайбонийлар даври тарихига оид манбалар кўпчиликини ташкил этиб, Mirzo Muhammad Haydar, Захириддин Мухаммад Бобур, Абдураззоқ Самарқандий, Хафиз-и Аbru, Хондамир Ғиёсиддин каби тарихнависларнинг асарлари Темурийлар даври тарихини ҳам ёритиб бериш билан бирга шайбонийлар давлати тарихини ҳам ёритиб берсарса³⁸, аксарият қисми

³⁷ Muhammad Solih. *Shayboniynoma*. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1990. (25–40-betlar); Mirzo Muhammad Haydar Dugo‘lat. *Tarixi Rashidiy*. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1996. (60–75-betlar)

³⁸ Zahiriddin Muhammad Bobur. *Boburnoma*. -Т .: Yulduzcha. 1989; Abdurazzoq Samarqandiy. *Matlai sa‘dayn va majmai bahrayn / Fors tilidan tarjima va*



асосан шайбонийлар даври тарихига оид воқеаларни қамраб олган³⁹.

Шайбонийлар даври Марказий Осиyo тарихида tub burilish yasagan bosqichlardan biridir. Temuriylar davlati inqirozidan so'ng siyosiy maydonga chiqqan Muhammad Shayboniyxon qisqa muddat ichida Movarounnahrni birlashtirishga erishdi. Bu jarayon mintaqaning siyosiy xaritasi, yer egaligi munosabatlari, savdo yo'llari va madaniy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bugungi kunda milliy davlatchilik tarixini xolis va manbaviy asosda o'rganish dolzarb vazifa hisoblanadi. Mustaqillik yillarida tarix fanida yangicha

yondashuvlar shakllandi, sovet davrida biryoqlama talqin qilingan masalalarni qayta ko'rib chiqish zarurati tug'ildi. Shu bois Shayboniylar davri tarixini manbalar asosida chuqur tahlil qilish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Muhokama. O'rta Osiyo tarixida XVI asr boshi siyosiy xarita va davlatchilik tizimining mutlaqo o'zgarishi bilan xarakterlanadi hamda bu davrning eng markaziy voqealaridan biri Muhammad Shayboniyxon va Shoh Ismoil Safaviy o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvidir. Shayboniyxon Movarounnahrda Temuriylar hukmronligiga chek qo'yib Xuroson hududlarini o'z davlatiga qo'shib olgan bir vaqtda Eron zaminida Safaviylar sulolasi kuchayib borayotgan edi. Ikki qudratli hukmdor o'rtasidagi raqobat nafaqat yangi hududlarni egallash balki mintaqada g'oyaviy va diniy yetakchilik qilish ambitsiyalariga tayanar edi. Tarixiy manbalarda keltirilishicha Shayboniyxon va Shoh Ismoil o'rtasidagi diplomatik yozishmalar nihoyatda keskin va haqoratli mazmunda bo'lib bu holat muqarrar urushdan darak berardi⁴⁰.

Vaziyat ming besh yuz o'ninchi yilning kuz oylarida o'zining cho'qqisiga yetdi va Shoh Ismoil katta qo'shin bilan Xurosonga bostirib kirdi. Shayboniyxon bu vaqtda o'z qo'shinlarining asosiy qismini mamlakatning shimoliy hududlariga tarqatgan bo'lib u kutilmagan hujum qarshisida oz sonli askarlari bilan

izohlar muallifi A.O'rinboev. J. II. Q. I. 1405 – 1429 yil voqealari. – T. : «O'zbekiston». 2008; Bartol'd V.V. Xafiz-i Abru i yego sochineniya. // Bartol'd V.V. Sochineniya. T. VIII – M.: Nauka, 1973; Bo'riev O. Hofizu Abru va uning ilmiy merosi. // Temuriylar bunyodkorligi davr manbalarida. / M. Xayrullaev va boshqalarning tahriri ostida; tuzuvchilar: A. O'rinboev, O. Bo'riev. – T.: A.Qodiriy nomidagi xadq merosi nashriyoti., 1997; Xondamir G'iyosiddin. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar / Fors tilidan tarjima, muqaddima mualliflari – Jalil Hazratqulov, Ismoil Bekjonov, Izohlar mualliflari – Ashraf Ahmedov, Ismoil Bekjonov, – T.: O'zbekiston, 2013; Yusupova D.Yu. Jizn' i trudy Xondamira. Tashkent: Fan, 2006 va boshq.

Muhammad Solih. Shayboniyнома.[Nashrga tayyorlovchi Nasrullo Davron] – Toshkent, O'zFA nashriyoti, 1961; Muhammad Solih. Shayboniyнома. T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1989

³⁹ ; Muhammad Solih. Shayboniyнома. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1990; Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma («Sharafnomayi shohiy»). Birinchi kitob; Fors tilidan S.Mirzaev tarj.; So'z boshi va izohlar muallifi: B. Axmedov. —T.: «Sharq», 1999; Termiziy, Xo'ja Samandar, Dastur ul-muluk: Podshohlarga qo'llanma / fors-tojik tilida erkin tarjima, so'zboshi, izohlar muallifi J.Esonov. – T.:G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1997. 272 b; Xo'jasamandar Termiziy. Dastur ulmuluk. T.: Adabiyot va sanat nashriyoti, 2001 va boshq.

⁴⁰ Mirzo Muhammad Haydar Dugo'lat. *Tarixi Rashidiy*. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1996. (60–75-betlar)



Marv qal'asiga yashirinishga majbur bo'ldi. Qal'a qamali uzoq davom etdi va Shayboniyxon Movarounnahrda keladigan yordamchi kuchlarni kutib mudofaada turishni afzal ko'rdi. Biroq tajribali sarkarda bo'lgan Shoh Ismoil Marv qal'asini kuch bilan ololmasligini anglab ayyorona strategiyani qo'lladi. U o'z qo'shinini go'yoki mag'lub bo'lib chekinayotgandek ko'rsatib Marv atrofidan uzoqlashtirdi va bu Shayboniyxonni qal'adan chiqib dushmani ta'qib qilishga undadi⁴¹.

Ming besh yuz o'ninchi yilning ikkinchi dekabr kuni Marv yaqinidagi Mahmudobod qishlog'ida tarixiy va fojiali jang bo'lib o'tdi. Shayboniyxon qo'shini dushmanning chekinayotgan guruhini quvib borib Safaviylarning pistirmada turgan asosiy kuchlari qurshoviga tushib qoldi. Jang nihoyatda shiddatli va qonli kechdi hamda Shayboniyxonning askarlari son jihatdan bir necha barobar ko'p bo'lgan safaviylar otliqlariga qarshi mardona kurashdilar. Biroq qulay vaziyatni qo'ldan boy bergan va qurshovda qolgan Shayboniyxon ushbu jang maydonida halok bo'ldi. Uning vafoti Shayboniylar davlatining yaxlitligiga va Xuroson ustidan nazoratiga qaqshatqich zarba bo'ldi⁴². Marv jangi oqibatida Amudaryo ikki davlat o'rtasidagi tabiiy va siyosiy chegara sifatida belgilandi hamda Xuroson hududi butunlay Safaviylar

tasarrufiga o'tdi. Bu voqeadan so'ng Shayboniylar davlati bir markazga bo'ysunuvchi monarxiyadan sultonlar kengashi tomonidan boshqariladigan konfederativ tuzumga aylandi. Muhammad Shayboniyxonning halokati mintaqada kuchlar muvozanatini o'zgartirib yubordi va Temuriy shahzoda Zahiriddin Muhammad Boburga yana bir bor o'z ona yurti bo'lgan Samarqandni qaytarib olish uchun umid va imkoniyat bag'ishladi. Ushbu tarixiy to'qnashuv Movarounnahr va Eron o'rtasidagi asrlar davom etgan siyosiy hamda madaniy aloqalarning xarakterini belgilab bergan muhim omil bo'lib qoldi.

Shayboniylar davri tarixini yanada mukammal o'rganish uchun avvalo birlamchi manbalarni tanqidiy tahlil qilish va ularni o'zaro solishtirish, qo'lyozma fondlaridagi hali to'liq o'rganilmagan hujjatlarni ilmiy muomalaga kiritish, arxeologik va numizmatik ma'lumotlarni yozma manbalar bilan uyg'un holda o'rganish hamda xorijiy arxivlar va kutubxonalardagi materiallarni tadqiq etish va raqamlashtirish, shuningdek zamonaviy tarixiy-tahliliy metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Kompleks yondashuv orqali davrning siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlari yaxlit tizim sifatida tahlil qilinishi mumkin.

Kutilayotgan samara. Mazkur tadqiqot natijasida Shayboniylar davri tarixining manbashunoslik asoslari yanada mustahkamlanadi. Davr tarixiga oid masalalar xolis va ilmiy yondashuv

⁴¹ Abulg'oziy Bahodirxon. *Shajarayi turk*. – Toshkent: Cho'lpon nashriyoti, 1992. (48–56-betlar)

⁴² Hasanxo'ja Nisoriy. *Muzakkiri ahbob*. – Toshkent: Meros nashriyoti, 1993. (70–82-betlar)



asosida qayta baholanadi. Natijada milliy davlatchilik tarixini chuqurroq anglash, tarixiy merosni asrash va uni yosh avlod ongiga singdirish imkoniyati kengayadi. Айни вақтда Shayboniylar davriga oid manbalarni nashr qilish va ularning ilmiy izohli tarjimalarini tayyorlash, oliy ta'lim muassasalarida mazkur davr tarixini alohida maxsus kurs sifatida o'qitish, xalqaro ilmiy hamkorlikni kuchaytirish orqali qo'shma tadqiqotlar olib borish мазкур муаммониң самарали ечимлари бўлиши мумкин.

Xulosa. Shayboniylar davriga oid birlamchi manbalar va ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, bu davr Markaziy Osiyoning siyosiy va madaniy o'zgarishida hal qiluvchi bosqichni ifodalaydi. Muhammad Shayboniyxon boshchiligidagi Shayboniylar davlatining tashkil topishi Temuriylar hukmronligidan mintaqaviy boshqaruv, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va madaniy rivojlanishga sezilarli ta'sir ko'rsatgan yangi siyosiy tuzilishga o'tishni belgilab berdi.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, "Shayboniynoma", "Tarix-i Rashidiy" va "Habib as-siyar" kabi birlamchi manbalarda davr siyosiy voqealari va

shaxslari haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Biroq, bu asarlar ko'pincha mualliflarining subyektiv nuqtai nazarlari va siyosiy qarashlarini aks ettiradi, bu esa tanqidiy va qiyosiy metodologik yondashuvni talab qiladi.

Zamonaviy tarixshunoslik fanlararo usullar va arxiv tadqiqotlari orqali tadqiqot doirasini kengaytirdi. Zamonaviy olimlar Shayboniylar sulolasini yanada muvozanatli va dalillarga asoslangan talqin qilishga hissa qo'shdilar, avvalgi bir tomonlama baholashlardan tashqariga chiqdilar. Biroq, ayrim jihatlar - xususan, ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalar, mintaqaviy boshqaruv mexanizmlari va madaniy o'zaro ta'sirlar - yanada chuqurroq o'rganishni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Shayboniylar davrini har tomonlama va obyektiv tushunishga faqat birlamchi manbalarni kompleks tahlil qilish va zamonaviy akademik tadqiqotlar orqali erishish mumkin. Bunday yondashuv nafaqat Markaziy Osiyo tarixshunosligini boyitadi, balki XV asr oxiri va XVI asr boshlarida Islom olamida davlatchilikning shakllanishi va siyosiy o'zgarishlarni kengroq o'rganishni ham kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abulg'oziy Bahodirxon. *Shajarayi turk*. – Toshkent: Cho'lpon nashriyoti, 1992. (48–56-betlar)
2. Azamat Ziyov. *O'zbekiston davlatchiligi tarixi*. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2000. (112–120-betlar)



3. Hasanxo'ja Nisoriy. *Muzakkiri ahbob*. – Toshkent: Meros nashriyoti, 1993. (70–82-betlar)
4. Mirzo Muhammad Haydar Dugo'lat. *Tarixi Rashidiy*. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1996. (60–75-betlar)
5. Mirzo Muhammad Haydar Dugo'lat. *Tarixi Rashidiy*. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1996.
6. Muhammad Solih. *Shayboniyнома*. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1990.
7. Xo'jasamandar Termiziy. *Dastur ulmuluk*. T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001 va boshq.
8. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи А.Ўринбоев. Ж. II. Қ. I. 1405 – 1429 йил воқеалари. – Т. : «O'zbekiston». 2008
9. Bartold V.V. *Xafiz-i Abru i yego sochineniya*. // Bartold V.V. *Sochineniya*. T. VIII – M.: Nauka, 1973
10. Bo'riyev O. *Hofizu Abru va uning ilmiy merosi*. // *Temuriylar bunyodkorligi davr manbalarida*. / M. Xayrullayev va boshqalarning tahriri ostida; tuzuvchilar: A. O'rinboyev, O. Bo'riyev. – T.: A.Qodiriy nomidagi xadq merosi nashriyoti., 1997
11. Zahiriddin Muhammad Bobur. *Boburnoma*. -T .: Yulduzcha. 1989;
12. Xondamir G'iyosiddin. *Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar* / Fors tilidan tarjima, muqaddima mualliflari – Jalil Hazratqulov, Ismoil Bekjonov, Izohlar mualliflari – Ashraf Ahmedov, Ismoil Bekjonov, – T.: O'zbekiston, 2013
13. Hofiz Tanish al-Buxoriy. *Abdullanoma («Sharafnomayi shohiy»)*. Birinchi kitob; Fors tilidan S.Mirzayev tarj.; So'z boshi va izohlar muallifi: B. Axmedov. —T.: «Sharq», 1999
14. Yusupova D.Yu. *Jizn i trudi Xondamira*. Tashkent: Fan, 2006